



Taqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | CONFÉRENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA


# YANG O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

DAVRIYLIGI: 2018-2023

## INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DUNYODA BIRINCHI KASHF  
ETILGAN LOKOMOTIV POYEZD



TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00

WWW.TAQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ



IYUL  
№54

OZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJUY OLIV TATIM MUASSASALARI PROFESSOR-QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IOTTODORLI TALABALAR

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
2-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-2**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-2**

**ТОШКЕНТ-2023**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 54-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегияси-дан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажида Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР**

**1. Rahmatova Nargiza Akbarovna**

OILA: KELIB CHIQISHI, MAZMUN-MOHİYATI, JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI  
VA AHAMIYATI ..... 7

**2. Sherali Xolov**

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TILISHI: MAQSAD VA  
VAZIFALAR ..... 10

**3. Xurshida Alimardonova**

YOSHLAR FIKRLAR XILMA-XILLIGI VA SIYOSIY MADANIYAT TUSHUNCHASI,  
MA'NO-MAZMUNI ..... 12

**4. Bobir Gulboyev**

GLOBALASHUV HOZIRGI DAVR SIVILIZATSİYASINING ASOSIY TENDENSIYASI  
SIFATIDA ..... 15



## ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

**OILA: KELIB CHIQISHI, MAZMUN-MOHIYATI, JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN  
O'RNI VA AHAMIYATI**

**Rahmatova Nargiza Akbarovna**  
Qarshi davlat universiteti tayanch doktarantti

**Annotatsiya.** Maqolada oilaning kelib chiqishi, uning mazmun mohiyati, jamiyat hayotida tutgan o'rni va roli, oilaviy munosabatlaring Sharq xalqlari hayotidagi o'rniga bag'ishlangan. Oilaviy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi munosib o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Oila, jamiyat, urf-odat, oilaviy munosabatlar, qadriyat, millat, ijtimoiy hayot.

**Аннотация.** В данной статье речь идет о происхождении семьи, ее значении, ее месте и роли в жизни общества, месте семейных отношений в жизни народов Востока. В ней говорится о должном месте и значении семейных ценностей в жизни общества.

**Ключевые слова:** Семья, общество, традиция, семейные отношения, ценность, нация, общественная жизнь.

**Abstract .**This article is devoted to the origin of the family, the essence of its content, its place and role in the life of society, the place of family relations in the life of the peoples of the East. We are talking about the worthy place and importance of family values in society.

**Key words:** Family, society, customs, family relations, values, nation, social life.

Oila va oilaviy munosabatlar qadimdan insoniyatni qiziqtirib kelayotgan ijtimoiy-tarixiy hodisalardan biridir. Shuning uchun ham ular bilan falsafa, sotsiologiya, iqtisod, huquqshunoslik, etnografiya, psixologiya, demografiya, pedagogika, tibbiyot kabi fanlar shug'ullanib keladi. Ushbu fanlarning har biri o'z sohasi nuqtai nazaridan oilani tadqiq etadi. Ilm-fanda oila ijtimoiy institut sifatida jamiyat bilan birga paydo bo'lgan degan qarash shakllangan. Ilk tarixiy bosqich ibtidoi jamiyatda oiladagi munosabatlar urug' va qabiladagi urf-odatlar yordamida boshqarilgan. Axloq, ilk diniy tasavvurlar va keyinchalik davlatning paydo bo'lishi bilan, bu munosabatlar axloqiy, diniy va huquqiy meyorlar bilan yo'liga qo'yila boshlagan.

Inson nafaqat ijtimoiy, shu bilan birga, biologik mavjudot hamdir. Uni goho boshqa biologik mavjudotlar singari, muayyan instinkt, his-tuyg'ular bosqaradi. Bu his-tuyg'ularga avvalo odamning jinsiy ehtiyojlari kiradi. Ular asosida esa har bir biologik mavjudotga xos bo'lgan avlod o'z ketidan nasl qoldirish instinkti yotadi. Oilaviy munosabatlar mana shu ehtiyojlarni qondirish asosida shakllangan. Keyinchalik ular jamiyatda yuz bergan o'zgarishlar va tarixiy shart-sharoitlar ta'sirida murakkablashib borgan. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning rivojlanishi bilan rasmiy nikoh munosabatlari ham yuzaga kelgan. Albatta, rasmiy nikoh munosabatlarining shakllanishi uzoq davom etgan. Barcha mavjudotlarning juft bo'lib yashashi tabiat qonunidir. Ammo inson oila qurib yashashi, oilaga ongli qarashi bilan boshqa mavjudotlardan tubdan farq qiladi. Farq shundaki, inson jinsiy munosabatlarga ongli yondashib, ularga axloqiy tus bergan, nafosat qonunlariga asoslanib, ularni tabora takomillashtirib borgan. Shu tariqa oilada asta sekin iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlar yuzaga kela boshlagan. Natijada oila – kishilarning tabiiy-biologik, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy institut sifatida shakllangan. Oila a'zolari bir oilada yashar ekanlar bir-birlari bilan iqtisodiy-mulkiy, huquqiy, axloqiy, estetik, psixologik va hokazo aloqalarda bo'ladilar. Oila kabi nikoh ham insoniyat ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan munosabatlar natijasidir. Nikoh tarixan tarkib topgan, jamiyat tomonidan muayyan tartibga solingen erkak va ayol o'zaro munosabatlarining shaklidir. Jamiyat nikoh yordamida jinsiy hayotni, er va xotinlik, ota-onalik huquqlarini, ularning bir-birlari oldidagi burchlarini tartibga soladi. Oilanikohga nisbatan murakkab munosabatlar tizimi bo'lib, u er va xotindan tashqari, ularning bolalari, yaqin qarindoshlarini ham birlashtirib



turadi. Oila ijtimoiy munosabatlar bilan birga o‘zgarib turuvchi, murakkab ijtimoiypsixologik munosabatlar majmuidir. Ibtidoiy jamoa tuzumining dastlabki bosqichida, odam to‘da-to‘da bo‘lib yashayotgan davrda, jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo‘lmay, to‘dadagi barcha erkak va ayollar bir-birlarga umumiyl er-xotin hisoblangan edi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida oilalar qon-qarindosh oila, punalual oila, juft oila, monagam oila kabi shakllarga ega edi. Qon-qarindosh oila – bu oilaning birinchi bosqichi hisoblanadi. U o‘zida nikohning quyidagi guruhalarni bo‘g‘inlarga ajratadi: oila chegarasidagi barcha buva va buvilar, ularning farzandlari, ya’ni ota va onalar bir-birlariga qarindosh bo‘lganliklari; shuningdek, keyingilarning bolalari uchinchi bo‘g‘inga tegishli umumiyl er-xotinlarni, bularning bolalari, ya’ni, birinchilarining evaralari to‘rtinchi bo‘g‘inga mansub er-xotinlarni tashkil qilganligini bildiradi. Oilaning ushbu shakli hukmron bo‘lgan davrda faqat ajdodlar bilan avlodlar, ota-onalar bilan bolalar o‘rtasida er-xotinlik huquqi va majburiyatları man etilganligi izohlab beriladi. O‘scha davrda xolavachcha, tog‘avachcha, amakivachchalarning o‘zaro nikohiga ruxsat etilgan.

Jamiyat taraqqiyotining so‘nggi bosqichlarida oilaviy hayotning rivojlanishi, axloqiy tushunchalarning normallashuvi – xotin-qizlarning to‘la erkinligi yoxud erkaklar bilan teng huquqliliginini, oilaning zamonaviy shaklini vujudga keltirgan. Oilaning taraqqiy etishini u bajarayotgan vazifalar mohiyatiga ko‘ra uch yo‘nalishga ajratish mumkin:

1. Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti;
2. Oilaning iqtisodiy taraqqiyoti;
3. Oilaning demografik tarakqiyoti.

Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti – oila a’zolarining ma’lumotlilikbilim darajasi, ijtimoiy mavqeい, salomatliliği, ta’lim-tarbiya, urf-odat, fan va madaniyat, tabiat va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarining takomillashib borishi bilan izohlanadi. Oilaning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uyjoy va boshqa yashash uchun zarur bo‘lgan vositalar bilan ta’milanishi darajasining o‘zgarib borishi uning iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi.

Oilaning demografik taraqqiyoti deganda esa, uning tashkil topishi, miqdori va demografik tarkibi (oilada yashayotgan kishilarning soniga qarab guruhlarga bo‘linishi), faoliyati (oilada farzandlar tug‘ilishining ma’lum davrlarda o‘zgarib borishi) tushuniladi. Keyingi yillarda o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar oila funksiyalarining kengayayotganligini ko‘rsatadi, chunki jamiyatda sodir bo‘layotgan demokratik o‘zgarishlar oilaga ham ta’sir etmay qolmaydi. Shu nuqtai nazardan bizningcha, oilaning quyidagi vazifalarini ko‘rsatish mumkin:

1. Oilada farzandlarning tug‘ilishi, aholining yangilab turilishini ta’minalash;
2. Oilada yosh avlodni jismoniy sog‘lom, ma’naviy barkamol, ahlokiy pok etib tarbiyalash orqali yoshlarni ijtimoiylashtiruv, jamiyatni madaniy jihatdan uzuksizligini ta’minalash;
3. Oilada xo‘jalik ishlarini yuritish, oila a’zolari uchun yashash joyini tayyorlash, ularning moddiy sharoitini yaxshilash;
4. Oila a’zolarini zarur bo‘lgan anjom va texnika vositalari bilan ta’minalash, ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, bilim olishi va biron ixtisosga ega bo‘lishi, o‘z iste’dod va imkoniyatlarini ruyobga chiqarish uchun iqtisodiy shartsharoit yaratish, mehnatga yaroqsiz oila a’zolarini (voyaga yetmagan bolalar, qariyalar) moddiy jihatdan ta’minalash;
5. Oilaning ijtimoiy nazorat qilish vazifasi, ya’ni oila a’zolarining hulq-atvori, axloqini nazorat qilish, er-xotinning oila va jamiyat oldidagi, farzandlarning ota-onalari, ota-onalarning farzandlari oldidagi mas’uliyatini oshirish;
6. Oila a’zolarininig ma’naviyatini yuksaltirish;
7. Oila a’zolarining oiladagi mavqelarini egallashlari uchun imkoniyat yaratish;
8. Oila a’zolarining dam olishlarini to‘g‘ri tashkil etish;
9. Oilaning emotsiyonal vazifasi, ya’ni oila a’zolarida bir- birilariga mehr-muhabbat, hurmat his-tuyg‘ularini tarbiyalash;
10. Er-xotinni bir-birlarining jinsiy ehtiyojlarini qondirish hamda o‘g‘il va qizlarga o‘z jinsiga oid tarbiya berish, ularni oilaviy hayotga tayyorlab borish.

Oilaviy munosabatlarning shakllanishi ijtimoiy munosabatlar tabiatiga, jamiyat ma’naviyati va madaniy taraqqiyoti darajasiga, amal qilinadigan urf-odat, an’ana va udumlargacha, kishilarning diniy e’tiqodlariga bog‘liqdir. To‘rtinchidan, oilalarning tashkil topishi va miqdoriy o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillardan biri uning jamiyatda tutgan o‘rnii, kishilarning oilaga bo‘lgan munosabatidir. Bu munosabat barcha xalqlarda bir xil emas. Qadimdan islom keng tarqalgan xalqlar orasida oila muqaddas hisoblanib kelindi. Sharqda oilaviy munosabatlar odob-axloq, milliy, umuminsoniy



qadriyatlar, diniy mezonlarga asoslanadi. Beshinchidan, respublikamizning mustaqillikka erishishi qadimdan muqaddas hisoblangan oilani mustahkamlash, sog‘lom, barkamol farzandlarni tarbiyalash uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ma’naviy shart-sharoitlarni yaratdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. O’zMe Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Avloniy A. “Turkiy guliston yoxud axloq”, -T.: 1992-yil.
3. Sher A. Axloqshunoslik, -T.: 2012-yil.
4. M.Dehqonov.N.Aminova Obod turmush mustahkam oila tayanchi.Turon Zamin ziyo. 2015.
5. M.Tilavoldieva, Sh.Xolmatova, N.Aminova, M.Mamadjanova. Etika, estetika,va mantiq. Yasabiy qo’llanma. Toshkent 2014.
6. Rizouddin ibn Faxriddin, Oila, T., 1991.



## O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TILISHI: MAQSAD VA VAZIFALAR

**Sherali XOLOV**

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
Sheralixolov83@gmail.com.

**Annotatsiya:** maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tilishi va uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri bilan bog'liq ilmiy-nazariy mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, globallashuv, inqilob, insoniyat, xalqaro raqobat, internet, raqamli texnologiya, raqobatdosh, kommunikatsiya, texnologik taraqqiyot, yalpi ichki mahsulot.

**Abstract:** the article presents scientific and theoretical considerations related to the transition to the digital economy in Uzbekistan and its impact on the country's economy.

**Key words:** digital economy, globalization, revolution, humanity, international competition, internet, digital technology, competition, communication, technological progress, gross domestic product.

**Аннотация:** в статье представлены научно-теоретические соображения, связанные с переходом к цифровой экономике в Узбекистане и его влиянием на экономику страны.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, глобализация, революция, человечество, международная конкуренция, интернет, цифровые технологии, конкуренция, связь, технологическое развитие, валовой внутренний продукт.

Bugungi kunda O'zbekistonda milliy iqtisodiyot global iqtisodiyotning ajralmas elementi sifatida uning bilan hamohang tarzda o'zgarib va rivoj topib bormoqda. Shu boisdan global iqtisodiyotga xos bo'lган jarayonlar O'zbekiston sharoitida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, tarkiban takomillashtirish kabi masalalar yuzaga kelmoqda. Iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo'layotgan raqamli inqilob insoniyat hayotini shiddat bilan o'zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, xalqaro raqobat maydonining yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi.

Raqamli iqtisodiyot ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlataladi. Birinchidan, raqamli iqtisodiyot - bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot - bu o'ziga xos tushuncha bo'lib, uning o'rganish obyekti axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli iqtisodiyot o'z rivojlanishining boshlang'ich davrida bo'lib, zamonamizning raqamli axborot bosqichiga butunlay o'tishi atiga bir necha yilni tashkil etadi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot - bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishslash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli ko'rnishdagi ma'lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili hisoblangan faoliyatdir.

Raqamli iqtisodiyot hozirgi mavjud sohalarning yarmidan ko'prog'ida beqiyos o'zgarishlar keltirib chiqarishi ta'kidlanmoqda. Jumladan, Jahon banki ekspertlari fikricha, tezkor internetdan foydalanuvchilar sonining 10 foizga ko'payishi milliy iqtisodiyotlar yalpi hajmini har yili o'rtacha 0,4-1,4 foizga oshirish imkonini beradi.

Dunyoda raqamli iqtisodiyot o'sishining sur'atlari yiliga deyarli 20 foizni tashkil etmoqda. Taraqqiy etgan davlatlarda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga yetgan. Ular hozirning o'zida raqamli iqtisodiyotning joriy qilinishidan juda katta naf ko'rishmoqda.

Raqamlashtirishning ahamiyati va ta'sirini qanchalik ortib borayotganligini baholash uchun so'ngi o'n yillikdagi bir nechta yirik texnologik kompaniyalar va raqamli platformalarning jahon bozoridagi kapitallarining ulushini ko'rish kifoya.

Dunyo hamjamiatida ro'y berayotgan bunday jadal o'zgarishlar va raqobatning keskinlashuvi jarayonida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etmasdan turib, yaqin va uzoq kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, uning raqobatdoshligini ta'minlay olmasligimiz ayni haqiqat bo'lib, bu esa, o'z navbatida, ilmiy va amaliy harakatlarni kuchaytirishni talab etadi.



Bu borada, so‘nggi yillarda milliy iqtisodiyotimizni tubdan modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida mamlakatimiz ijtimoiy- iqtisodiy hayoti va davlat boshqaruvi tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida qator chora-tadbirlar amalgalashirildi.

Chunonchi, mamlakatimizda “Elektron hukumat” tizimini joriy etish raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy maqsadi ma’muriy tartib va taomillardan o‘tishni soddalashtirish, aholi turmush sifatini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan.

Belgilab olingan asosiy vazifalar ijrosini amalgalashirish, shuningdek, mamlakatimizda raqamli jamiyat rivojlanishi, aholi va tadbirkorlar uchun qulay imkoniyatlar yaratish, byurokratik to‘silalar va korrupsiyaviy omillarlardan holi samarali va ochiq davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirish borasida ko‘zlangan maqsadga erishish uchun bugungi kunda iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan “raqamli iqtisodiyot” milliy konsepsiyasini ishlab chiqilayotgan bo‘lib, aynan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini qo‘sishimcha 30 foizga o‘stirish imkonini yaratilishi kutilmoqda.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologik rivojlanish sharoitida O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotsiz tasavvur qilish qiyin. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, 2022-yilga kelib global YAIMning chorak qismi raqamli sohada bo‘lishini taxmin qilinmoqda. Lekin, xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlantirish indeksi bo‘yicha O‘zbekiston 170 dan ortiq davlat ichida 103-o‘rinni egallab turishining o‘zi mamlakatimizda bu sohada hali o‘z yechimini kutayotgan masalalar va qilinishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘pligidan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbarining ta’kidlashicha, “...yurtimiz xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi bo‘yicha 2019-yilda 8 pog‘onaga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, hali juda ham orqada. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq, desak, bu hamhaqiqat. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish - kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat - korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin”. O‘z o‘rnida qayd etib etish lozimki, mamlakatimiz hayotida raqamli iqtisodiyotning ayrim elementlari allaqachon muvaffaqiyat bilan faoliyat ko‘rsatmoqda.

Jumladan, hujjalarning va kommunikatsiyalarning ommaviy ravishda raqamli vositalarga o‘tkazilishini hisobga olib, elektron imzoga ruxsat berish, davlat bilan muloqot qilish ham elektron platformalarga o‘tkazilmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, insoniyat taraqqiyotining hozirgi davri va yaqin istiqbolida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining sifat jihatdan rivojlanishi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib bormoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning qamrov darajasiga tayanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.B. Dixit Fundamental of computer programming and IT. - Laxmi Publication PVT. Ltd., 2011. - 557 p.
2. Applegate L. M., McFarlan F. W., McKenney J. L. Corporate information systems management: the issues facing senior executives. Irwin, 1996.
3. Hickerson. Business and Infomiation Systems 3/e. N. Y.: John Wiley & Sons, 2000.
4. Ostanaqulov M. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. - T: Talqin. 2008. 424 b
4. Qosimova G. Davlat byudjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi. O‘quv qo’llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008; 372 b



## YOSHLAR FIKRLAR XILMA-XILLIGI VA SIYOSIY MADANIYAT TUSHUNCHASI, MA’NO-MAZMUNI

Xurshida Alimardonova  
Qarshi davlat universiteti, talaba

**Annotatsiya.** Maqolada yoshlar fikrlar xilma-xilligi va siyosiy madaniyati, ularning o’zaro bog’liqligi va aloqadorligi bilan bog’liq bo’lgan ilmiy-nazariy qarashlar haqida so’z yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** siyosiy madaniyat, siyosiy ong, fikr, modernizatsiya, kreativ fikr, siyosiy jarayon, yoshlar, ijtimoiy qatlam, intellektual salohiyat.

**Abstract.** The article talks about the scientific and theoretical views related to the diversity of opinions and political culture of young people, their interdependence and connection.

**Key words:** political culture, political consciousness, thought, modernization, creative thought, political process, youth, social class, intellectual potential.

**Аннотация.** В статье говорится о научно-теоретических взглядах, связанных с разнообразием мнений и политической культуры молодежи, их взаимообусловленностью и связью.

**Ключевые слова:** политическая культура, политическое сознание, мысль, модернизация, творческая мысль, политический процесс, молодежь, социальный класс, интеллектуальный потенциал.

Bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovatsion asosda rivojlantirish, o‘z oldimizga qo‘yan ko‘p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham ma’suliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, g‘ayrat-shijoatli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalar ishonib topshirilmoqda<sup>1</sup>.

Ana shu nuqtai nazardan yondashganda fikrlar xilma-xilligi, plyuralizm bir tomonidan, yoshlar siyosiy madaniyatining shakllanishi va rivojining muhim omili sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchidan, fikrlar xilma-xilligi jamiyat a’zolaridan, xususan, uning muhim ijtimoiy-tarkibiy qatلامи bo‘lgan yoshlardan yuqori darajada siyosiy madaniyatli bo‘lishni taqoza etadi.

Fuqarolik jamiyatni ijtimoiy hayotning davlat ta’siri va aralashuvidan, ma’muriy tazyiqlardan xoli bo‘lgan hamda insonlarning erkin munosabatlaridan tashkil topuvchi, yoshlarning ijodiy salohiyati va iste’dodining bevosita ro‘yobga chiqarilishiga keng imkoniyat yaratilgan ongi individlar jamiyatni. Demak, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yoshlar eng katta shijoatli kuch hisoblanadi. Bu kuch esa yoshlarning ma’naviy-axloqiy ongingin shakllanishi bilan bevosita bog’liq. Yoshlarda ma’naviy-axloqiy ongi, birinchidan, uning dunyoqarashi bilan bog’liq bo‘lgani uchun ham jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy hayotida o‘ziga xos o‘ringa ega; ikkinchidan, ijtimoiy hayot sohalari bilan bog’liq; uchinchidan, metodologik nuqtai nazardan, jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy hayotini bilish, o‘rganish orqali jamiyatga ta’sir ko‘rsatadi.

XXI asr ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy hayotning barcha sohalarida xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvi va intensivlashuvi, bir so‘z bilan aytganda, globallashuv jarayoni bilan xarakterlanadi. Globallashuv davri iqtisodiy siyosiy, ijtimoiy o‘zgarishlar, yangiliklar, kashfiyotlar bilan ilm-fan, texnika-texnologiyalar rivojlangan va yuksak imkoniyatlar eshigi ochilganligi bilan ijobji natijalarini bergan bo‘lsa, hozirgi sharoitda g‘oyaviy, mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning o’tkir quroliga aylanib inson hayotiga va u yashayotgan jamiyatga ta’sir o‘tkazayotganligi bilan salbiy holatlarni ham keltirib chiqarmoqda.

“Bugungi dunyo ma’naviy manzarasi jarayonlarida “kim-kimni?” degan tamoyil amal qilayotgani achinarlidir. Yana ham aniqrog‘i, milliy ma’naviyatlar o‘z “qiyofasi”ni asrab, millat yoshlariga o‘tkazayotgan tarbiyaviy ta’sirini saqlab qola oladimi va ular milliy g‘oyalar rivojlanishiga kuch-quvvat bag‘ishlash manbai bo‘la oladimi yoki “ommaviy madaniyat” va undan oziqlanayotgan insonlarni halokatga yetaklayotgan turli g‘arazli g‘oyalar yengadimi, degan masala global muammo darajaga ko‘tarildi”<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. –B.491.

<sup>2</sup> Otamurodov S. Globalashuv: millatni asrash mas’uliyati. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – B.300.



Bunday ta’sirlar hozirgi davrda «kommaviy madaniyat» niqobi ostidagi xavf-xatarning keng tarqalib borayotganligi masalasiga jiddiy e’tibor qaratishni talab etmoqda. Dunyoqarashi, tafakkuri, aqliy salohiyati endigina shakllanayotgan yosh avlod qalbida vatanparvarlik, milliy g’urur, o’zlikni anglash kabi tuyg’ularni kuchaytirish, inmillatson oliv qadriyat ekanligini anglatish, siyosiy-g’oyaviy jihatdan chiniqtirish borasidagi ta’sirchan tadbirlarni izchil amalga oshirish lozimligi ta’kidlanmoqda.

Bu borada O’zbekistonda Maktabgacha ta’lim, Xalq ta’limi hamda Oliy va o’rta maxsus ta’limi tizimi bilan bir qatorda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentliklari o’z faoliyatlarini olib borishmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoyev “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talabalari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz, deb bilamiz”<sup>1</sup>, – deya ta’kidladilar.

Demokratik fuqarolik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirishda yoshlar, ijtimoiy hayotining fikrlar xilma-xilligiga asoslanishi, siyosiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi muhim omil hisoblanadi. Yoshlar siyosiy madaniyatini shakllanishini fikrlar xilma-xilligi (plyuralizm) siz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Yoshlar ijtimoiy hayot sohalari bilan bog‘liq “siyosiy voqelikni” turli-xil idrok etishlari, unga munosabatda esa, o‘ziga xos siyosiy muloqot madaniyatiga ega bo‘lishlari zarur. Bu ulardan o‘ziga xos siyosiy ong va madaniyatni taqoza etadi. Yoshlarda siyosiy fikrlar xilma xilligini shakllantirishning quyidagi dolzarb jihatlari bor:

birinchidan, fikrlar xilma-xilligi, obyektiv jarayon bo‘lib, turli xil yoshlarga xos dunyoqarash, siyosiy, ijtimoiy voqelikni idrok etishda bir-biriga aynan o‘xshamaslik, individual xususiyatlarning mavjudligi va umumiy qonuniyatga ega ekanligini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligida;

ikkinchidan, fikrlar xilma-xilligida jamiyatning muhim qatlami yoshlarning siyosiy madaniyatni, uning ko‘rinishi va o‘ziga xos xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Hamda demokratik siyosiy madaniyatning bo‘lishini taqoza etadi. Bu jamiyatdagi turli xil sotsial-ijtimoiy guruqlar, qatlamlarga mansub bo‘lgan yoshlarning maqsad va manfaatlari, qarashlari hamda siyosiy kayfiyati bilan bog‘liq holda kechishi bilan xarakterlanadi, uni o‘rganish siyosiy hayotda muhim o‘rin tutishida;

uchinchidan, fikrlar xilma-xilligi keng tushuncha bo‘lib, jamiyat hayoti sohalarining barcha jabhasini qamrab oladi. Bu jamiyat hayoti negizlari bilan bog‘liq bo‘lib, “ijtimoiy”, “iqtisodiy”, “siyosiy”, “madaniy” va “mafkuraviy” sohalarining va unga qarashning xilma-xilligini o‘zida ifoda etadi. Shunga mos ravishda ijtimoiy hayotning fikrlar xilma-xilligiga asoslanishini anglatishi bilan bog‘liq. Hamda yoshlarning uni idrok etishi va munosabati orqali turli xil fikrlar va qarashlarni demokratik taraqqiyotga ta’siri mexanizmlarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojida;

to‘rtinchidan, jamiyatning demokratik siyosiy taraqqiyotida fikrlar xilma-xilligi turli xil ijtimoiy, siyosiy institutlar, ularning faoliyati bilan bog‘liq dasturlari, maqsad va manfaatlari, yoshlar qatlaming fikr va intilishlarini ifoda etishi, unga bo‘lgan xayrixohligining namoyon etishdagi bog‘liqlikda siyosiy-madaniy xususiyatlardagi rang-baranglikni siyosiy tahlil etishda;

beshinchidan, “fikrning yagonaligi” yoki “yagona fikrga”, “yagona g’oyaga” va “yagona mafkuraga” tayanish siyosiy madaniyatning nodemokratik, totalitar, ko‘rinishi bo‘lib, yoshlarda “yagona fikr”ga yoki “o‘z fikrini bir tomonlama o‘tkazib, hokimiyatga ega bo‘lish”ga bo‘lgan moyillikning oldini olish, fikrlar xilma-xilligiga asoslanish, o‘zgalar fikrini eshitish madaniyatini shakllanishini siyosiy hayot, siyosiy hokimiyat va voqelik bilan bog‘liqligini yoshlar siyosiy madaniyatining o‘ziga xos mezoni, tamoyili sifatida o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi hamda aloqadorligida;

oltinchidan, plyuralizm, xususan siyosiy plyuralizm sharoitida yoshlar siyosiy madaniyatining shakllanishi bilan bog‘liq xususiyatlarni, uning murakkabliklarini hamda afzallik tomonlarini bilish, unga yoshlarning tayyor bo‘lishi bilan bog‘liq holatlarni hisobga olishga bo‘lgan ehtiyojida;

yettinchidan, ko‘p qutbli dunyoda g’oyalar va mafkuralar ko‘rinishlari, ular o‘rtasidagi farqni yoshlar siyosiy madaniyatida aks etishini, “yoshlar – siyosatning subyekti”, faol qatlam sifatida ularni fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklariga qarashlaridagi mushtarak nuqtalarni aniqlashni taqozo etishi bilan aloqador. Bu siyosiy madaniyatning muhim jihatni sifatida yoshlarni konstruktiv (amaliy) faoliyatga yo‘naltirib va birlashtirib turishining siyosiy mazmun va mohiyatga ega ekanligini atroficha o‘rganish zaruriyatni mavjudligida;

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 jild. – T.: O‘zbekiston, 2019. – 349-b



sakkizinchidan, fikrlar xilma-xilligining yoshlari siyosiy madaniyatini shakllanishiga ta'siri bilan bog'liq jihatlarini siyosiy fanlarda yetarlicha o'rganilmaganligi bilan asoslash mumkin. Bunday siyosiy tadqiqotlarni amalga oshirish yoshlari siyosiy madaniyati shakllanishida fikrlar xilma-xilligining chuqur o'rni borligini anglashda, idrok etishda;

to'qqizinchidan, yoshlari siyosiy madaniyatining shakllanishida fikrlar xilma-xilligini muhim omil va mezon sifatida ayrim xulosa, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, muammo va uni yechish yo'llarini ko'rsatishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi bilan bog'liq. Uning amalga oshirilishi demokratik fuqarolik jamiyatini qurishda muhim o'rinni tutadi.

### **Foydalanaligan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. –B.491.
2. Otamurodov S. Globallashuv: millatni asrash mas’uliyati. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – B.300.
3. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 jild. – T.: O‘zbekiston, 2019. – 349-b



**GLOBALLASHUV HOZIRGI DAVR SIVILIZATSIYASINING ASOSIY  
TENDENSIYASI SIFATIDA**

**Bobir GULBOYEV**

Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

Bobirgulboyev77@gmail.com

Tel: (91) 257-90-57

**Annotatsiya.** Maqolada globllashuv tushunchasi, mazmun-mohiyati va uninh inson va jamiyat hayotiga ta'siri bilan bog'liq ilmiy-nazariy mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, ijtimoiy taraqqiyot, antiglobalistlar, axloq, ma'naviyat, siyosat, internatsionallashuv, baynalminallahuv.

**Аннотация.** В статье представлены научно-теоретические соображения, связанные с понятием глобализации, ее сущностью и влиянием на жизнь человека и общества.

**Ключевые слова:** глобализация, общественное развитие, антиглобализация, нравственность, духовность, политика, интернационализация, интернационализация.

**Abstract.** The article presents scientific and theoretical considerations related to the concept of globalization, its essence and its impact on the life of a person and society.

**Key words:** globalization, social development, anti-globalization, morality, spirituality, politics, internationalization, internationalization.

XX asrning oxiri va XXI asr boshlariga kelib milliy taraqqiyotda o'ziga xos yangi xususiyatlar vujudga keldi. Bugun globallashuv o'z ta'sirini o'tkazmagan bironqa soqa qolmadı, desak to'g'ri bo'ladi. Dastlab u mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida aks etgan bo'lsa, hozirga kelib siyosat, axloq, milliy-ma'naviy hayot, insonlarning kundalik turmush kechirishigacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'ziga qamrab oldi. Shu o'rinda uning mamlakatlar va xalqlar turmush tarzining ijobjiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'lganligini qam e'tirof etish o'rinlidir.

Globallashuv (globalizatsiya) - lotincha "glob" so'zidan olingan bo'lib, aynan uni "dumaloqlashuv", "kurrelashuv" deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlataladi. "Global" tushunchasi lug'aviy ma'nosi nuqtai nazaridan fransuz tilida "umumiyy", lotin tilida esa "globus"-Yer shari" ma'nolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki ma'noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog'liq bo'lgan katta muammolarni, "sayyoraviy", "dunyoviy" muammolarni, global taraqqiyot istiqbollarini o'ziga qamrab oladi.

Globallashuv atamasi birinchi bor 1960 yil Giddins tomonidan foydalanilgan<sup>1</sup>. Bu atama XX asrning 90-yillarigicha deyarli foydalanimagan. 1985 yilga kelib amerikalik sotsiolog R. Robertson «globallashuv» atamasiga tushuncha bergan<sup>2</sup>. Globalizatsiya atamasi birinchi bo'lib iqtisodchi olimlar tomonidan 1981 yildan beri qo'llanilib kelingan. Ammo bu so'zning to'liq ma'nosi, konsepsiysi 1990 yilning yarmida amerikalik olim Charlz Taz Rassel tomonidan to'liq ochib berilgan.

"Globallashuv" atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983 yili «Garvard biznes revyu» jurnalida chop qilgan maqolasida qo'llangan. T.Levitt yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini "globallashuv" deb atagan<sup>3</sup>. Mazkur ta'rifda globallashuv jarayonining iqtisodiy tamonlariga e'tibor berilgan. O'z davrida frantsuz faylasufi Rene Dekart "Tushunchalar ma'nosini aniqlashtiring va bu insoniyatning yarmini adashishdan saqlaydi" - deb yozgan edi. Ayni shu ma'noda dastlab biz "globallashuv" tushunchasining istilohiy ma'nosini izohlashga harakat qilamiz. Bu so'zga quyidagicha tarif berish mumkin: Globallashuv – Jahon xo'jaligi rivojlanishining ob'ektiv jarayoni bo'lib, juda ko'p ijobjiy xususiyatlarga egadir: bular asosan turli mamlakatlar xo'jaligining o'zaro aloqasi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, ilm – fan texnika texnalogiya yutuqlari almashuvini tezlashishni hamda

1 Шахрай С.М. Глобализация в современном мире: политico-правовые аспекты. – СПб : Фонд поддержки науки и образования в области правоохранительной деятельности «Университет», 2004. С.6

2 Что такая глобализация? По сайту <http://www.univer.omsk.su/omsk/socstuds/glob/index.html>

3 Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T.: Ma'naviyat, 2006. 8-b.



davlatlarni ilmiy texnikaviy taraqqiyotiga ko‘maklashuv bilan tasdiqlanadi. Globallashuv — butunjahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiya (bir birga yaqinlashuv) jarayonidir. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurlarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlarning madaniyatining qo‘shilish va yaqinlashuvidir. Bu ob’ektiv jarayon bo‘lib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega.<sup>1</sup> Globallashuvga qarshi harakatlar ham mavjud bo‘lib, ular globallashuv natijasida yuzaga keladigan va kelayotgan muammolarni oqibati salbiy deb e’tirof etishadi. Bunday tashkilot, uyushma, harakatlarga Green, Antidaos kabi bir necha antiglobolistlarni kiritish mumkin. Globallashuv bosqichiga mintaqalashuv bosqichini bosib o‘tish lozim.

Vaholanki, globallashuv yaxlit jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi. A.Ochilievning ta‘kidlashicha, “...eng umumiy ma`noda, globallashuv, bir tomonidan, muayyan hodisa, jarayonning barcha mintaqalar, davlatlar va butun Er yuzini qamrab olganini, ikkinchi tomonidan, ularning insoniyat taqdiriga dahldor ekanini anglatadi”<sup>2[2]</sup>. V.I.Danilov-Danilyan esa “Globallashuv ko‘proq mantiqdan emas, balki tarixiy paradigmadan kelib chiqqan so‘zdir. Globallashuv jihatlarining o‘zaro aloqadorligini aniq va ravshan tahlili mavjud emas”<sup>3[3]</sup>, - deb yozgan edi. Yuqoridaq ta‘riflardan ko‘rinadiki, globallashuv jarayoni o‘zining murakkabligi va serqirraligi bilan alohida ajralib turadi. Shuning uchun ham “...globallashuv tushunchasi haqidagi qarashlar turli-tumanligicha davom etib kelmoqda. Bu tabiiy hol. Chunki uning makon va zamonda sodir bo‘lish xususiyatlari turlicha bo‘lib dunyoning o‘zgarishiga o‘tkazayotgan ta’sirida ham yangi-yangi imkoniyatlari namoyon bo‘lmoqda”<sup>4[4]</sup>. 1980-1990 yillar bo‘sag’asida “globallashirish” tushunchasi yangi talqingga ega bo‘ldi: asli yaponiyalik keyinroq amerikalik mashhur iqtisodchi K.Ome ta‘riflab bergan mazkur atamaning ommaga tushunarli bo‘lgan ifodasidan jahon xo‘jaligi rivojlanishining nisbatan yangi qirralari va tavsiflari, uning dastlabki taraqqiyot bosqichlaridan farqlanuvchi hozirgi holatini ko‘rsatish uchun tatbiq eta boshladilar.

Proffesor A. Katsovich globallashtirish jarayonini tasvirli yoritilishi va jahon xo‘jaligining yangi tavsiflari yuzaga kelishi: “Globallashtirish chegaralar orqali iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni intensifikasiya qilish orqali aniqlanishi mumkin. Globallashtirish – bu erkin savdo to‘g’risidagi bitimlar uyg’unligi, jahonni yagona va o‘ta raqobatli bozorga aylantirgan Internet hamda moliyaviy bozorlarning birlashishidir”, degan taklifni kiritadi<sup>5</sup>.

YAna bir rus olimi L.E. Grininning fikricha, «Globallashuv -mintaqalar va umuman jahonning integratsiyasi va yaqinlashuvining natijasidir».<sup>6</sup> U globallashuvga jarayon sifatida qaraydi va unga quyidagi ta‘rifni beradi. «Globallashuv - bu jarayon, uning nati-jasida dunyo o‘zining barcha sub’ektlariga yanada aloqador va yana qam bog‘liq bo‘ladi»<sup>8</sup>.

Rus olimlaridan yana biri professor A.G. Kosichenko qam globallashuvga jarayon sifatida qaraydi. U shunday yozadi: «Globallashuv ko‘p o‘lchamli jarayon, u o‘z ta’sir doirasiga gurli usul va vositalar bilan barcha soqalarni qamrab oladi». Ayni paytda uning fikricha, «iqtisodiyotning o‘ziga xos qukmronlik ta’siri bugun jahon hayotining barcha sohalarida namoyon bo‘lmoqda».

Bundan tashqari, globallashuvni turli sohalarda sodir bo‘layotgan integratsiyalashuvning natijasi sifatida qarashlar ustuvorlik qiladi. Bunday qarash mazmunini dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning tabiiy ravishda mustaqamlanib borishi va ularning o‘zaro integratsiyalashuvi natijasi sifatida, sub’ektiv omillar ta’siri, ya’ni katta iqtisodiy saloqiyatga ega bo‘lgan davlatlarning kam taraqqiy qilgan mamlakatlarning resurslarini turli yo‘l va vositalar bilan qo‘lga kiritish maqsadida amalga oshirilayotgan tadbirlarning natijasi sifatida qarashlar ham mavjud. Xillas, globallashuv tushunchasi qaqidagi qarashlar turli-tumanligicha davom etib kelmoqda. Bu tabiiy hol. Chunki uning makon va zamonda sodir bo‘lish xususiyatlari turlicha bo‘lib dunyoning o‘zgarishiga o‘tkazayotgan ta’sirida qam yangi-yangi imkoniyatlari namoyon bo‘lmoqda.

«Globallashuv» tushunchasiga mualliflar tomonidan yuqorida ilgari surilayotgan turli fikrlarga

1 Глобализация ru.wikipedia.org

2 Ochiliev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – T.: Muhammarr nashriyoti, 2009. 64 b.

3 Danilov-Danilyan V.I.Ustoychivoerazvitie-problema vijivaniya cheloveka//Nauka. Obshestvo. Chelovek.-M., 2004.

-143 s.

4 Otamuratov S. Globallashuv va millat. – T., Yangi asr avlod, 2008. – 13 b.

5 Kacovicz A. Regionalization, Globalization and Nationalism // Alternatives. 1999.04. P. 529.



qo'shilish mumkin. Chunki qar bir muallif uning turli sohalariga o'tkazayotgan ta'sirini turlicha tafakkur qiladi va uni turlicha talqin etadi. Boz ustiga globallashuvning o'tkazayotgan ta'sir doirasini bepoyon va keng qamrovli hamdir. Shu ma'noda mualliflar tomonidan ilgari surilayotgan fikrlar qanchalik turli-tuman bo'lsa, uning turli xususiyatlari va insoniyat, millat, mamlakat, jahon miqyosida o'tkazayotgan ta'sirini o'rganishning imkoniyatlari shunchalik kengayib boradi. Avvalo «globallashuv» tushunchasiga ta'rif berishda, unga haqiqatan ham kengroq va chuqurroq yondoshmoq kerak bo'ladi. Jumladan, yuqorida berilayotgan ta'riflarning aksariyat ko'pchiligidagi «globallashuv» tushunchasiga yaqin bo'lgan «internatsionallashuv» (baynalminalleshuv) va «integratsiyalashuv» tushunchalari o'rtasidagi munosabatlar e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Ya'ni nega «globallashuv» tushunchasifatida ommaviylashib ketmoqda yoki «internatsionallashuv» va «integratsiyalashuv» tushunchalari unga nisbatan kam qo'llanilmoqda degan savolga javob ochiq qolib kelmoqda.

Aslida, «globallashuv»ning asl mohiyati va uning barcha sohalarga o'tkazayotgan ta'sir doirasini bilish uchun uni yuqorida keltirilayotgan ikkala tushuncha bilan solishtirish maqsadga muvofiqdir.

Yana yuqoridagi tushunchalar taxliliga qaytib shuni aloqida ta'kidlash lozimki, bugun bir qator olimlar globallashuv jarayon sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida amal qilgan, degan fikrlarni ham ilgari surmoqdalar. Hatto qadim dunyo xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalarning yuzaga kelishi va rivojlanish jarayonlarini «globallashuv» bilan bog'lash to'g'risidagi fikrlar ham uchraydi. Keltirilganlardan ko'rinish turibdiki, globallashuv erkin savdoning boshlanishi va uning natijasida iqtisodiyotdagi taraqqiyot, informatika va telekomunikatsiya taraqqiyotida sodir bo'lgan inqiloblar bilan bog'liqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Шахрай С.М. Глобализация в современном мире: политico-правовые аспекты. – СПб : Фонд поддержки науки и образования в области правоохранительной деятельности «Университет», 2004. С.6
2. Что такая глобализация? По сайту <http://www.univer.omsk.su/omsk/socstuds/glob/index.html>
3. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T.: Ma'naviyat, 2006. 8-b.
4. Глобализация ru.wikipedia.org
5. Ochildev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – T.: Muhammarr nashriyoti, 2009. 64 b.
6. Danilov-Danilyan V.I.Ustoychivoe razvitiye-problema vijivaniya cheloveka//Nauka. Obshestvo.CHelovek.-M.,2004. -143 s.
7. Otamuratov S. Globallashuv va millat. – T., YAngi asr avlod, 2008. – 13 b.
8. Kacovicz A. Regionalization, Globalization and Nationalism // Alternatives. 1999.04. P. 529.

# **ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 2-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.07.2023

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000